Korxonalarda innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish yo'nalishlari .....	979
Gafurova Umida Fatixovna	
Davlat boshqaruvi tizimi va hududiy rivojlanish o'rtaсидagi munosabatlar .....	984
Tolibjon Qazaqov Sharifjon o'g'li	
Sanoat korxonalarining strategik iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash .....	988
Uktamov Xusniddin Faxriddinovich	
Tijorat banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi .....	992
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Tadbirkorlik muhiti tahlili va uni davlat tomonidan tartibga solish shart-sharoitlari .....	997
S. T. Toshaliyeva, A. M. Abduraxmonov	
Учет поступления и списания с учета основных средств в бюджетных организациях .....	1002
Абдуллаева Нилуфар Джавдат кизи	
Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish.....	1007
Sa'dullayeva Asalxon Muzaffarovna	
Davlat budgetining soliqsiz daromadlari shakllanishini takomillashtirish yo'llar.....	1010
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Sog'liqni saqlash tizimini davlat tomonidan moliyalashtirishning zaruriyati.....	1014
Meliyev Azimjon Murodullo o'g'li	
Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda ichki audit xizmatining zarurligi .....	1019
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
Hududlarda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy asoslari.....	1024
Tangriberdiyev Sulaymon Kamiljonovich	
Tadbirkorlikni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning nazariy va uslubiy tamoyillari .....	1030
Farxodjon Inamov	
Xitoy iqtisodiyotidagi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar .....	1037
Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li	
Экономический механизм государственного регулирования транспортной системы.....	1043
Саримсакова Малоҳат Ҳикматуллаевна	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	1046
Usmanov Baxodir Baxtiyorovich	
Korxonalar faoliyatiga innovatsion marketingni joriy etish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.....	1052
Fatilloyev Farrux Farhod o'g'li	
Tog' turizmini rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	1056
Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li	
Qashqadaryo viloyatida kambag'allik darajasini iqtibolda qisqartirish yo'nalishlari.....	1062
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
O'zbekistonda iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirishning yo'nalishlari .....	1068
Saidova Dildora Nurmatovna, Murodov Jahongir Husan o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Chakana savdo korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish .....	1071
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
O'zbekistonda sug'urta kompaniyalarini molyaviy imkoniyatlarini ko'paytirish shart-sharoitlari.....	1076
Boyev X. I.	
Banklarning valyuta operatsiyalarini rivojlantirish yo'nalishlari .....	1079
Beknazarova Nilufar Tulkinovna	
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiya garovidir .....	1082
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Aminov Bobir O'lmasovich, Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li, Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich, Abdulhamidov Nizomjon, Qo'idoshev Diyor Ural o'g'li	
Oliy ta'lim muassasasida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari.....	1087
Umarova Xilola Uktamovna	



# TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJY INVESTITSIYALAR MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY GAROVIDIR

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**

PhD, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

**Aminov Bobir O'lmasovich**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

**Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

**Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

**Abdulhamidov Nizomjon**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

**Qo'idoshev Diyor Ural o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'rni va ahamiyati, bu boradagi mavjud muammolar, tahlilii ma'lumotlar, yechimlar bo'yicha xulosa, taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsion jozibadorlik, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, investitsiya siyosati, franchayzing, konsessiya, modernizatsiya.

**Abstract:** The article discusses the economic nature and importance of foreign direct investment, the role and importance of foreign direct investment in the socio-economic development of the country, existing problems, analytical data, conclusions, proposals and recommendations for solving them.

**Key words:** investment attractiveness, foreign direct investment, investment climate, investment policy, franchising, concession, modernization.

**Аннотация:** В статье рассматриваются экономическая природа и значение прямых иностранных инвестиций, роль и значение прямых иностранных инвестиций в социально-экономическом развитии страны, существующие проблемы, аналитические данные, выводы, предложения и рекомендации по их решению.

**Ключевые слова:** инвестиционная привлекательность, прямые иностранные инвестиции, инвестиционная климат, инвестиционная политика, франчайзинг, концессия, модернизация.



## KIRISH

Jahonda globallashuv jarayonlarining tezlashib borishi hozirgi davrda mamlakatlar iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini oshirishni taqozo etmoqda. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda eng asosiy omillardan hisoblanadi. „Jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2023-yilda 3 foizga oshib 1,37 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining bunday kam foizli o'sishi asosan tranzit mamlakatlarga investitsiyalarning „joyalashishi“ bilan bog'liq bo'ldi – yuqori foiz stavkalari tufayli sezilarli oqim Yevro hududi mamlakatlariiga, asosan Lyuksemburg va Gollandiyaga kiritildi”<sup>1</sup>.

O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni muvaffaqiyatlari jalb qilishda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, hududlar investitsiya salohiyatidan to'liq foydalinish, xorijiy investorlarga beriladigan imtiyoz va preferensiylar takomillashtirish muhim o'rinn tutadi. Respublikada “investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish”<sup>2</sup> vazifasi belgilangan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni hududlarga jalb qilish, ularni sug'urta vositasida himoyalashda yangi sug'urta turlarini joriy qilish, iqtisodiyotni raqamlashtirish, investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi omillarning risklilik darajasini pasaytirish mexanizmlarini doimiy takomillashtirib borish masalalari dolzab muammolardan biridir.

Olib borilgan tadqiqotlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning turli vositalaridan foydalinish masalalari keng yoritib berilgan. Jumladan, investitsiyalarni jalb etishning venchurli, konsessiya hamda franchayzing usullariga alohida e'tibor qaratilgan. Ammo hududlar iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni maqsadli yo'naltirish, sug'urtalash va innovatsion klasterlarni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati masalalari ilmiy tadqiqotlarda atroflicha o'rganilmagan.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha asosiy nazariyalar kelib chiqishiga e'tiborni qaratamiz. R.Vernon halqaro tovar ishlab chiqarish nazariyasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xalqaro savdo o'rtasidagi munosabat, tovarning hayotiy sikli kabi muammolarga e'tiborni qaratadi<sup>3</sup>. Ushbu nazariyada muallif xalqaro savdo, ishlab chiqarish va butun tarmoqlarning ko'chish sabablari kabi xalqaro iqtisodiy munosabatlar elementlarini marketing nazariyasi (tovarning hayotiy sikli egri chizig'i) bilan birlashtiradi.

Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning ilmiy-nazariy asoslari xorij iqtisodchi olimlaridan K.Turbina, O.Malkova, A.Zagryadskiy, L.Borodavko va N.Krichevskiylarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>4</sup>.

Xorijiy investitsiyalarni mintaqalarga jalb qilish hamda sanoat va innovatsion klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish sohasini o'rganish va tadqiq qilishga katta hissa qo'shgan olimlar sifatida chet ellik olimlardan Sushama Deshmukh, Davies S., Hallett M.<sup>5</sup> va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Shuningdek, bu boradagi mavjud muammolarning o'ziga xos ilmiy va amaliy jihatlari respublikamizning bir qancha iqtisodchi-olimlari, jumladan, A.Bekmuradov., B.Berkinov, A.Vaxobov, A.Isadjanov, N.Karimov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan<sup>6</sup>.

1 Doklad Konferensii OON po torgovle i razvitiyu (YUNKTAD).

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son).

3 Vernon R. International investment and international trade in the product cycle // Quarterly Journal of Economics. 016. № 80. R. 190-207.

4 Turbina.K.YE. Investitsionniy protsess i straxovaniye investitsiy ot politicheskix riskov / K. YE. Turbina. – M.: Ankil, 1995.-S.80.; Malkova.O.V. Straxovaniye v sisteme mejdunarodnix ekonomicheskix otnosheniyy. Uchebnoye posobiye. Rostov-na-Donu. 2007.-S.192.; Zagryadskiy.A.S. Rol straxovaniye inostrannix investitsiy v uluchshenii uslovii kapitalovlojeniy v natsionalnyuyu ekonomiku. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni k.e.n. M-2004.-S.22.; Borodavko.L.C. Развитие страхования реальных инвестиций при реализации инвестиционных проектов. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni k.e.n. Irkutsk., 2012.-S.23.; Krichevskiy.N.A. Straxovaniye investitsiy., M. 2006.-S.334.

5 Sushama Deshmukh [2012]. Effect of FDI on Employment Generation International Referred Research Journal, [Onlaine] p 28., Davies S., Hallett M. (2002). Interactions between National and Regional Development. Hamburg Institute of Regional Economics, Hamburg.

6 Bekmuradov A.SH. Globalnie trenidi na mirovix finansovix rinkax i problemi privlecheniya tekhnologicheskix investitsij dlya realizatsii promyshlennoy politiki Uzbekistana // Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. №2, yanvar, 2016-y.; Berkinov B.B. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar samaradorligi// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №5, 2015-y.; Vahobov A.B., Г.X.Разикова, Ш.X.Хаджибакиев Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики.Т.: "Moliya" 2011 г.-124 с.; Isadjanov A.A. Uzbekistan: potensial investitsionnogo sotrudnichestva// Inostrannye investitsii v Respublike Uzbekistan. №1, 2008 y.; Karimov N.G'. Iqtisodiy integrallashuv sharotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. –214 b.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni yoritishda abstrakt-mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMAS

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya bu transchegaraviy investitsiyalarning shunday turiki, unda bir iqtisodiyotdagi rezident boshqa iqtisodiyotdagi rezident korxonaga investitsiya kiritishi uning boshqaruvini nazorat qilish yoki unga salmoqli ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bunda boshqaruvni nazorat qilish uchun korxonaning kamida 50 foiz plus bitta ovoz berish huquqi, unga salmoqli ta'sir ko'rsatish uchun esa 10-50 foiz ovoz berish huquqi talab qilinadi.

Xalqaro statistika tajribasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning turlicha tushunchasi qo'llaniladi. Masalan, Xalqaro valyuta fondining ta'riflashicha, chet el investorida korxona aksiyasining kamida 25 foizi bo'lsagina investitsiyalar to'g'ridan-to'g'ri investitsiya hisoblanadi. AQSH va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki statistikasi, iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tavsifiga ko'ra esa, kami bilan korxonaning 10 foiz aksiyasiga ega bo'lsagina, bunday investitsiyalar to'g'ridan-to'g'ri investitsiya deb tan olinadi<sup>7</sup>. Bu ko'rsatkich Yevropa Hamjamiyati davlatlarida - 20-25%, Kanada, Avstraliya va Yangi-Zelandiyada – 50%ni tashkil etadi<sup>8</sup>.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonunida: to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari – chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari",<sup>9</sup> deb ta'rif berilgan. Ko'pchilik rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosan resurs izlovchi xarakterga ega bo'ladi. Bu turdagи investitsiyalar uchun rag'batlantiruvchi omillar sifatida retsipyent mamlakatlarning xom-ashyo va mehnat resurslariga boyligini keltirish mumkin. Ushbu mamlakatlarda neft, gaz, mineral moddalar, metallar kabi tabiiy boyliklarning ko'pligi va arzonligi hamda arzon ishchi kuchi mayjudligi resurs izlovchi investitsiyalar jalb qilishni rag'batlantiradi. Bunday turdagи investitsiyalash natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar esa asosan eksport qilinadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirotkini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lg'a qo'yish mumkin emas. Yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'z iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishi bir tarafdan iqtisodiyotni yetakchi tarmoqlarini rivojlanatirish imkonini bersada, ikkinchi tomonidan bu jarayonlarni hududlar imkoniyati, tabiiy resurs manbai bilan bog'lagan holda joylashtirish masalasida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

**1-jadval:** Dunyo mintaqalari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi<sup>10</sup>

Mintaqalar	2020-yil		2021-yil		2022-yil		2023-yil	
	Hajmi (mlrd. AQSH doll.)	O'sish sur'ati (%)	Hajmi (mlrd. AQSH doll.)	O'sish sur'ati (%)	Hajmi (mlrd. AQSH doll.)	O'sish sur'ati (%)	Hajmi (mlrd. AQSH doll.)	O'sish sur'ati (%)
Jahon bo'yicha	999	-35	1478	48	1295	-12	1370	3
Rivojlangan mamlakatlar	312	-58	597	91	378	-37	524	39
Yevropa	73	-80	51	-30	-107	-	70	-
Shimoliy Amerika	180	-42	453	51	338	-26	377	11
Rivojlanayotgan mamlakatlar	663	-8	881	33	916	4	841	-9
Afrika	40	-16	80	20	45	-44	48	7
Osiyo	535	4	662	24	662	0	584	-12
Lotin Amerikasi	88	-44	138	57	208	51	209	0,5
O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari	24	-58	-	-	-	-	-	-

7 Miroviye investitsii. Delovoy partner Uzbekistana, №5 (352), 1 fevral 2001, 3-bet.

8 Doklad Vsemirnogo banka / World Development Report 2011: A Better Investment Climate for Everyone (World Development Report) // The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 2010.

9 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/4664142>.


10 UNCTAD ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)ning global oqimlari 2023-yilda 2022-yilga nisbatan (2022-yilda TTXIning hajmi 1.295 trln. AQSH dollarini bo'lgan) 3 foizga ko'paygan va 1,37 trln. AQSH dollarini tashkil etdi. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab guruhanishi jihatidan, TTXI oqimi hajmi 2023-yil yakuniga kelib, rivojlangan mamlakatlarda 39 foizga, jumladan, rivojlangan Shimoliy Amerika mamlakatlarida 11 foizga, Afrikada 7 foizga oshganligi kuzatildi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda –9 foiz, Osiyo mamlakatlarida –12 foiz pasayish kuzatildi.

Global siyosiy inqiroz, Ukrainadagi urush, oziq-ovqat, energiya va qarz mablag'lari narxlarining o'sishi TTXI oqimi hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jahan kapital bozoridagi noaniqlik, foiz stavkalarining oshishi halqaro loyihaviy moliyalashtirish va transchegaraviy birlashish sharoitlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni davlat tomonidan samarali boshqarish mexanizmlari kelgusida davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, communal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratishda jalg qilinadigan yillik investitsiyalar miqdorini 14 mlrd. AQSH dollariga yetkazishda xizmat qiladi.



1-rasm: O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi(trln. so'm)<sup>11</sup>

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, COVID-19 pandemiya sharoitida milliy iqtisodiyotga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi biroz pasaygan (2020-yilda 28,7 trln.so'm). Umuman olganda, 2017-yildan boshlangan iqtisodiy islohotlar samarasi o'laroq, valyuta konvertatsiyasi muammosini hal etilishi va milliy iqtisodiyotning halqaro integratsiyalashuvi natijasida 2023-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 84,3 trln.so'mga yetgan.

Bugungi kunda Respublikamizda xorijiy investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, jumladan, xorijiy investitsiyalarni kafolatlari himoyalash mexanizmlari mamlakatning sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarini rivojlantirish uchun tashqi kapitaldan yetarlicha foydalananish imkonini bermaydi. Shundan kelib chiqib, milliy investitsiya dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni sug'urta vositasida kafolatlari himoya qilishning mukammal mexanizmlarini yaratishni taqozo qilmoqda. Bundan tash-qari xorijiy investitsiyalarni sug'ortalashga oid nazariy qarashlar va yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish natijalari mamlakatda xorijiy investitsiyalarni sug'ortalashning ilmiy-nazariy va huquqiy asoslariga oid ilmiy ishlar yetarli darajada amalga oshirilmaganligini ko'rsatmoqda, xorijiy investitsiyalarni sug'ortalash bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy natijalardan kelib chiqib, bu borada yagona yondoshuvni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, ayrim regionlar va hududlarni rivojlantirishda transmilliy tashkilotlarning o'rni va ahamiyatini faol o'rganish zaruriyati tug'ildi. Jahonda iqtisodiy faoliyatlarning notekis taqsimoti va ularni markazlashtirish yoki klasterlash shu bilan izohlanadiki, natijada davlatlar va kompaniyalarda klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tashvishli savollar paydo bo'ldi. Chet el kapitalining kirib kelishi xorijiy investor atrofida boshqa kompaniyalarning markazlashishi jarayonini shakllanishiga olib keladi, qaysiki bu klasterlarning tashkil topishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga hissa qo'shadi.

11 O'zbekiston Respublikasi davlat statistika agentligi ma'lumotlari



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyot barqarorligini oshirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirish mumkin:

1. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida ilg'or xorij tajribasidan kelib chiqib, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi, bosib o'tgan yo'lli, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash yo'lida mamlakatning investitsion muhitini sog'lomlashtirish borasida qabul qilgan qonunlari, ishlab chiqqan qarorlarini o'rganish, investitsiyalari kengroq jalb etish bo'yicha ishlab chiqqan usul va uslublarining kerakli jihatlarini O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish.
2. Mamlakatimizda chuqur institusional o'zgarishlar orqali investitsiyalarni boshqarishda davlat institutlari sifatini oshirish.
3. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy kafolat tizimi bo'lgan sug'urtalash mexanizmini takomillashtirish, milliy sug'urta kompaniyalari moliyaviy imkoniyatlarini oshirish.
4. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga asoslangan innovatsion loyihalarni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga moliyalashtirish.
5. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda sanoat-innovatsion transchegaraviy klasterlarni tashkil etish.
6. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish va samaradorligini oshirish.
7. Bank infratuzilmasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish orqali kapital aylanishi tezlashuvini ta'minlash.
8. Korporativ boshqaruva sohasidagi yondashuvlarni tubdan o'zgartirish va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'naliшhlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berish lozim.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O'RQ-598-soni "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/4664142>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-soni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-soni, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-soni).
3. Vernon R. International investment and international trade in the product cycle // Quarterly Journal of Economics. 016. № 80. R. 190-207.
4. Turbina.K.YE. Инвестиционный процесс и страхование инвестиций от политических рисков / K. YE. Turbina. – M.: Ankil, 1995. –S.80.
5. Загрядский.А.С. Роль страхования иностранных инвестиций в улучшении условий капиталовложений в национальную экономику.Sushama Deshmukh [2012], Effect of FDI on Employment Generation International Referred Research Journal, [Onlaine] p 28.
6. Davies S., Hallett M. (2002). Interactions between National and Regional Development. Hamburg Institute of Regional Economics, Hamburg.
7. Бекмурадов А.Ш. Глобалные тренды на мировых финансовых рынках и проблемы привлечения технологических инвестиций для реализации промышленной политики Узбекистана // Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. №2, yanvar, 2016-y.
8. Berkinov B.B. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar samaradorligi// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №5, 2015-y.
9. Miroviye investitsii. Delovoy partner Uzbekistana, №5 (352), 1 fevral 2001, 3-bet.
10. Doklad Vsemirnogo banka / World Development Report 2011: A Better Investment Climate for Everyone (World Development Report) // The International Bank for Reconstruction and Development/The World Bank. 2010.
11. Доклад Конференции ООН по торговле и развитию (YUNKTAD). <https://www.kommersant.ru/doc/6466210>
12. <https://stat.uz>

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.